

MUHADDIS MUHAMMAD IBN ISMOIL AL -BUXORIY ASARLARIDA
HADIS ILMINING O`RNI

*Shabdullayeva Lazokaton Orifbekovna
“Umumiy pedagogika” kafedrasи o`qituvchisi
Murodaliyeva Zeboxon Muzaffarovna
Andijon Davlat universiteti talabasi*

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy hayoti, ilmga baǵishlangan yillari, asarlari va hadis ilmi haqida fikr yuritilgan. Muhammad ibn al -Buxoriy haqida bildirilgan fikrlardan namunalar keltirilgan. Qur`oni karimda ham Rasululloh (alayhissalom) hadislarida ham odob-ahloq masalalariga alohida e`tibor qaratilgan. Hadislarda “Kuchli mo`min Alloh taologa zaif mo`mindan ko`ra mahbubroq va afzalroq” ekani bayon qilinadi. Hozirgi globallashuv sharoitida “kuchli mo`min” deyilganda nafaqat mushaklar bilan, balki, ilm-ma`rifat, zamonaviy fan-texnologiya yutuqlaridan unumli foydalanish orqali uni jamiyat manfaatlari uchun qildiradigan insonni tushunamiz.

Kalit so`zlar: Muhaddis, ilm, asarlar, hadis ilmi, tafsir ilmi, fiqh ilmi, lug`at ilmi, olim, imom, din peshvosi, ma`rifat, “Al-Jomi as-Sahih”.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается жизнь Мухаммада ибн Исмаила аль-Бухари, его годы, посвященные науке, его труды и наука о хадисах. Примеры мнений, высказанных о Мухаммаде ибн аль-Бухари. И Священный Коран, и хадисы Пророка (мир ему и благословение) уделяют особое внимание вопросам манер. В хадисах сказано, что «сильный верующий более любим и предпочитаем Аллаху, чем верующий слабый». В условиях современной глобализации, когда мы говорим «сильноверующий», мы имеем в виду человека, который делает это на благо общества не только мускулами, но и эффективно используя достижения науки, просвещения, современной науки и технология.

Ключевые слова: Мухаддис, наука, произведения, наука о хадисах, наука о толковании, наука о правоведении, наука о словарном запасе, ученый, имам, религиозный лидер, просветительство, «Аль-Джами ас-Сахих».

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017 yilning 14-15 aprel kunlari Samarqand viloyatiga qilgan tashrifi chog`ida Imom Buxoriy yodgorlik majmui qoshida xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini qurish taklifini bildirib, shunday

degan edi: "Buyuk mutafakkir bobomiz, barcha muhaddislar peshvosi Imom Buxoriy mangu qo'nim topgan ushbu maskanda o'ziga xos ma'naviy-ruhiy muhit mavjud. Majmuaga ziyoratga kelgan odam bu markazga ham kirib, o'ziga katta ozuqa olsin, bobolarimiz hikmatlaridan o'rganib ketsin. Shunda ularning qalbida ulug' ajdodlarimiz bilan faxrlanish tuyg'usi rivoj topadi, ayni paytda shunday buyuk zotlarning avlodи mas'uliyatini his etadi".

Özbekistonda ilmga qiziqish ayniqsa al-Buxoriy asarlari bugungi kunda yoshlar ortasida katta qiziqish bilan örganilishi yurtimizda olib borilyotgan sai-harakatlar tufaylidir. Al-Buxoriy xotirasi kuchli zehni ötkir, juda uquvli, tez yodlab olishi, zakovatli, iqtidorli, keng tafakkurli va istagan narsasini juda tez esga olib takrorlashi bilan tengdoshlari orasida yagona edi. Al-Buxoriy milodiy 810-yilda (hijriy 194-yil) Buxora shahrida dunyoga kelgan. U bolalik choqlaridayoq Buxorodagi yetuk allomalardan dars olgan. U hadis ilmida kuchli xotira egasi bòlib voyaga yetdi. U 10 yoshidanoq hadis tinglashni boshlagan va 15 yoshgacha 70 mingga yaqin hadisni yod olgan. U ozi haqida shunday deydi: „Men boshlangich mакtabda öqib yurgan kezlarimdayoq hadis yodlash menga ilhom qilindi. Avval u Abdulloh ibn al-Muborak va Vaki ibn al-Jarohning hadis тòplamlarini тòliq yod oladi. U yodlab olishi uchun bir marta kòrishi yoki eshitishi yetarli edi. Ustozi imtihon qilganida 15000ga yaqin hadisni yoddan aytib beradi. Eng ahamiyatlisi shundaki u bu hadislarni yozib bormagan edi. U barcha ötilgan hadislarni birma-bir aytib berganda qolgan tengdoshlari yozgan daftardagi xatolarini тògirlab olishadi. Muhammad Ismoil al -Buxoriy 16 yoshida onasi va birodari Ahmad bilan birgalikda haj ziyoratiga borish choгida islom ölkalaridagi ilm markazga sayohat qiladi. Onasi va birodari Buxoroga qaytyotkanlarida Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy ilm örganish istagi bilan makkada qoladi. U Hijozda 6 yil istiqomat qiladi va hadis ilmini mikammalroq örganadi. U 18 yoshida „Kitob qazoyas sahoba va tobein"va „at -Tarix al -kabir " nomli asarlarni yozadi .Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy juda ko'p ilmiy sayohatlar uyushtirgan. U Balxda-Makkiy ibn Ibrohimdan hadis tinglaydi. U Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriyning katta ustozlaridan birinchisi hisoblanadi. Juda ko'pgina ilm ahlidan hadis tinglagan va ta'lim olgan. Zahabiyning ta'kidlashicha, "Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy tahsilini tamomlab kitob yozishga va hadis rivoyat qilishga boshlagan paytida hali yuzida bir tuk chiqmagan o'spirin edi". Faqat kitob yozishga kirishishi hadis talabini so'ngiga yetganini bildirmaydi. "Kishi o'zidan katta bo'lganlardan, tengdoshlaridan va o'zidan kichik bo'lganlardan ilm olmaguncha kamolga erishmaydi", degan Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy 1080 ta kishidan hadis tinglab, ilm o'rgangan.Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy mashg'ul bo'lib faoliyat olib borgan ilmlarni quyidagicha tartiblash mumkin:

Hadis ilmi. Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy hadislarni yod olish bilan birgalikda ularning isnodlarini va uni xilma-xil yo'llarini mukammal o'rgangan ushbu

sohada tengsiz edi. Uning bu ilmning eng cho‘qqisiga chiqqanligini tasdiqllovchi juda ko‘p hayotiy misollar mavjud. Misol uchun Abul Azhar dedi: “Samarqandda 400 ta hadis toliblari 7 kun davomida to‘planib, Muhammad ibn Ismoilni xatoga tushirmoqchi bo‘ladilar. Ular Shom isnodini Iroq isnodiga, Yaman isnodini Haromayn (Makka va Madina) isnodiga aralashtirib, matnlarni ham chalkashtirib yuboradilar. Muhammad ibn Ismoil barcha hadislarni isnodlari bilan joy-joyiga qo‘yib aytib beradi”. Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy dedi: “Men hadis isnodidagi barcha roviylarni tug‘ilgan va vafot etgan yili, yashab istiqomat qilgan joylarini bilmaguncha qabul qilmadim. Sahoba va tobe’inlardan (mavquf) hadislarni Qur’on va Rasululloh (s.a.v.) hadislarida asli bo‘lmasa rivoyat qilmadim. Men 100000 ta “sahih”(to‘g‘ri) va 200000 ta “g‘ayri sahih” (noto‘g‘ri) hadisni isnodlari bilan yod olganman” deydi .Tafsir ilmi. Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy buyuk muhaddis olim bo‘lish bilan birgalikda Qur’on oyatlari nimaga dalolat qilishini juda yaxshi bilar edi. U Qur’on va hadisdan shar’iy masala bo‘yicha hukm chiqara olish qudratiga ega edi. Uning “sahih”idagi tafsir kitobini va “at-Tafsir al-kabir” asari bu sohada ham tengsiz ekanligiga yorqin misol bo‘ladi.

Fiqh ilmi. Hadislardan hukm olishda nimalarga e’tibor qaratish kerakligini a’lo darajada o‘rgangan Imom al-Buxoriy hadis ilmi bilan shug‘ullanish bilan birgalikda fiqh ilmi bilan ham mashg‘ul bo‘lgan. U yoshligidan boshlab “ahli ray” mazhabini juda yaxshi o‘rgandi. U sahobalarni so‘zлari va tobe’inlarni fatvolarini yaxshi o‘rgandi. U hatto 18 yoshida ularga bag‘ishlab bir mustaqil asar yozdi. Uni buyuk faqih va tengsiz mujtahid ekanligini juda ko‘p ustozlari ta’kidlaganlar Tarix va siyar ilmi. Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy bu ilm sohasida tengsiz edi. U hadis rivoyatidagi roviylar silsilasini har tomonlama mukammal o‘rgangan edi. U hadisni “sahih”ligini belgilovchi eng muhim jihat bu roviyning ahvolidir, degan. Uning eng birinchi yozgan asari “at-Tarix al-kabir” hisoblanadi.

Jarh va ta’dil ilmi. Hadis ilmining muhim bir sohasi bo‘lmish “aj-Jarh vat ta’dil” ilmiga oid fikrlar sahobalar davrida bildirilgan. Lekin, bu soha bo‘yicha yozilgan eng qiymatli asarlar Imom al-Buxoriy davriga to‘g‘ri keladi. Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy bu ilmda tengsiz hisoblanardi. Chunki, u sahoba davridan boshlab, o‘zini davrigacha bo‘lgan barcha isnodlarni juda mukammal va a’lo darajada o‘rganib, ishonchli va mohirini muttaham va yolg‘onchidan ajratgan.Hadis illati ilmi. Bu ilm maxfiylici uchun hadis ilmining eng nozik va eng qiyin sohasi hisoblanadi. Muhammad bu ilmda bamisolai hilpirab turgan bayroq kabidir. Uning bu ilmdan xabardorligi va bilimdonligiga yorqin misol Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy “sahih” asaridir. Bu ilmdan bexabar bo‘lgan muhaddis qancha hadis yod olmasin “sahih” hadisni boshqasidan ajratib mustaqil bir asarda jamlay olmaydi.

Lug‘at ilmi. Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy bu ilmdan bo‘yicha ham benasib qolmagan. Bu ilm ayniqlsa, faqihning asosiy qurolidir. “Sahih”ni ko‘p yerida kelgan

g‘arib narsalarni tushuntirib izohlash uchun qo‘llaganini ko‘rishimiz mumkin .Imom al-Buxoriy Islom olami va muhaddislar orasida “Imom ul-Muhaddisiyn” (Barcha muhaddislarning peshvosi) deb hurmat bilan tilga olinadi. Imom al-Buxoriyning “Al-Jomi’ as-Sahih” (Ishonarli to‘plam) asari haqida so‘z ketganda shuni aytish mumkinki, mazkur manba Islom dini ta’limotida Qur’oni karimdan keyin asosiy manba sifatida foydalaniladi. Imom al-Buxoriy yashagan davrdan oldin ta’lif etilgan hadis kitoblarida sahih va g‘ayri sahih hadislar aralash holda berilgan bo‘lib, o‘quvchi ulardagi biror hadisni to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligini, hadis rivoyat qiluvchining ahvolini tekshirmay va aniqlamay turib, bilolmasdi. Buning uchun o‘quvchi o‘sha hadisga aniqlik kiritish maqsadida ulamolardan so‘rashga majbur bo‘lardi.

Mana shunday og‘ir davrda Imom al-Buxoriy “Al-Jomi’ as-Sahih” kitobini 16 yilda yozib tugatib, unga 7275 dan ortiq sahih hadislarni boblarga ajratib tartibli ravishda jamladi.

Imom al-Buxoriyning “Al-Jomi’ as-Sahih” kitobiga mashhur olimlar tomonidan yuzdan ziyod sharh va xoshiyalar bitilgan. Jumladan, “Fathul-Boriy”, “Al-Kavkab ad-Daroriy”, “Irshodus-Sariy”, “Umdat al-Qoriy”, “Fayzul Boriy” va boshqa ko‘plab sharhlarni misol qilib keltirish mumkin.Bundan tashqari, Imom al Buxoriyning “Al-Adab al-Mufrad” (Odob durdonalari), “Birr ul-Volidayn” (Ota-onani hurmat qilish), “At-Tarix al-Kabir” (Katta tarix), “At-Tarix al-Avsat” (O‘rtacha tarix), “At-Tarix as-Sag‘iyr” (Kichik tarix), “Al-Jome’ al-Kabir” (Katta hadislar to‘plami), “Kitab al-Ilal” (Nuqsonli hadislar kitobi), “Kitab al-Kunya” (Hadis roviylarining taxalluslari) kabi yigirmadan ortiq asarlarlari mavjud.Demak, hadislar mazmunan har bir mo‘minning ishonchini, e’tiqodini mustahkamlaydi va shu bilan birga insonni ma’naviy kamolotga da’vat etadi. Shunday ekan, hadislar komil insonni shakllantirishda muhim manba bo‘lib hisoblanadi va undan yoshlar tarbiyasida foydalanish shu kunning dolzarb vazifalaridan sanaladi.2022 yil yanvar-may oylari davomida quyidagi asarlar nashrga tayyorlandi:Imom Buxoriyning “Tarixus sag‘ir”, ya’ni “Kichik tarix” asari. Unda 2997 nafar roviylar haqida ma’lumotlar jamlangan. Asarda mashhur sahobalar, tobeinlar va ularning izdoshlari va ular vafot etgan yillar, naslu nasabi, o’zaro muloqotlari haqida so‘z yuritilgan.

Shunday qilib, Buxoriy asarlarida inson bilim olishi, hadislarga tayanishi, hunar egallashi, undagi manaviy ahloqni ulug`laganlar va hammani shunday fazilatli boliishga chorlagan. Ma’naviy yuksak ma’nан barkamol zamonaviy ilm -fanni egallagan avlodu ajdodlarini boy ma’naviy merosiga ega chiqgan avlod hech qachon g`oya mafkura va tashqi kuch oz ta’siriga tushura olmaydi. Bunday avlodni voyaga yetkazgan xalq kelajagi porloq va buyukdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Moziydan taralgan ziyo. Imom al Buxoriy, T., 1998;
2. Imom al-Buxoriy. Al-jome' as-sahih (1-jild)
3. Islom ensiklopediyasida.
4. Imom alBuxoriy — muhaddislar sultonni [nashrga tayyorlovchilar Usmonhoji Temurxon o‘g‘li, Baxtiyor Nabixon ugли], T., 1998
5. Internet ma'lumotlari: <https://saviya.uz/hayot/tarjimai-hol/imom-al-buxoriy-810-870/>, <https://www.qadriyat.uz/tarix/faqihlar/628-imom-abu-khafs-kabir-bukhorij>.